



UDK: 323:331.7 (575.1)

Jamshid YUSUBOV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD
Dilnava MIRQURBONOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

O'zMU "Pedagogik ta'lim" kafedrası professori A. Utamuradov taqrizi asosida

CREATION OF A STRATEGY FOR THE SOCIAL AND SPIRITUAL DEVELOPMENT OF YOUTH IN NEW UZBEKISTAN

Annotation

The article reveals the creation of a national strategy on preparation of socially active youth in the New Uzbekistan. At the same time, there were given scientifically substantiated opinions and suggestions on the processes of reforms conducted in the New Uzbekistan; to train mature professionals with high qualifications, modern knowledge and experience in the management system, the generalization of national experience, the study of existing problems, scientific research on their solutions, training of young active and managerial personnel.

Key words: Action strategy, personnel, active youth, youth day, youth parliament, leader, development.

СОЗДАНИЕ СТРАТЕГИИ СОЦИАЛЬНО-ДУХОВНОГО РАЗВИТИЯ МОЛОДЕЖИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

Создание национальной стратегии подготовки социально активной молодежи в новом Узбекистане. В статье раскрыты вопросы создания национальной стратегии подготовки социально активной молодежи в новом Узбекистане. Наряду с этим рассмотрены вопросы, связанные с процессами реформ, осуществляемых в области подготовки высококвалифицированных, обладающих современными знаниями и опытом зрелых специалистов для системы управления в новом Узбекистане, проведением научных исследований, посвященных обобщению национального опыта, изучению существующих проблем, поиску их решений, научно обоснованным суждениями по подготовке молодых активных управленческих кадров.

Ключевые слова: Стратегия действий, кадры, активная молодежь, день молодежи, молодежный парламент, лидер, развитие.

YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARNI IJTIMOIIY-MA'NAVIIY JIHATDAN YUKSALTIRISH STRATEGIYASINING YARATILISHI

Annotatsiya

Maqolada Yangi O'zbekistonda ijtimoiy faol yoshlarni tayyorlash milliy strategiyasining yaratilish masalalari ochib berilgan. Shu bilan birga, Yangi O'zbekistonda boshqaruv tizimiga yuksak malakali, zamonaviy bilim va tajribaga ega yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlashga oid olib borilayotgan islohotlar jarayonlari, milliy tajribani umumlashtirish, mavjud muammolarni o'rganish, ularning yechimlarini topish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borilayotgani, yosh faol va boshqaruvchan kadrlarni tayyorlash bilan bog'liq masalalar yuzasidan ilmiy asoslangan fikr-mulohazalar yuritilib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Harakatlar strategiyasi, kadr, faol yoshlar, yoshlar kuni, yoshlar parlamenti, lider, taraqqiyot

Kirish. Yangi O'zbekistonda boshqaruv tizimiga yuksak malakali, zamonaviy, ilg'or boshqaruv texnologiyalariga doir bilimlar va tajribalarni o'zida mujassamlashtirgan yosh yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash va tanlash tizimini shakllantirish sohasiga doir ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, undan olingan ilmiy natijalarni islohotlar jarayonlariga qo'llash, bu sohadagi milliy tajribani umumlashtirish, islohotlar jarayonlarida bu sohada paydo bo'lgan muammolarni o'rganish, ularning yechimlarini topish, qurilayotgan huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati talablariga javob bera oladigan salohiyatli yosh boshqaruvchan kadrlarni tanlash, tayyorlash va ularni rasmiy lavozimlarga to'g'ri tayinlash hozirgi davrning eng dolzarb vazifalari biri hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev barcha chiqishlarida bu dolzarb masalaga alohida e'tibor qaratishi ham ushbu

fikrning isbotidir. Jumladan, 2019 yil 27 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning

yoshlar bilan o'tkazgan uchrashuvida: "Bugun barcha sohalarida bilimli, siyosiy va ijtimoiy faol, xalq manfaatini o'z shaxsiy manfaatidan ustun qo'yadigan, halol va jonkuyar, yosh rahbarlarga ehtiyoj tobora ortib bormoqda[1], deb ta'kidladilar. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida, shuningdek, mamlakatni 2022-2026 yillarda rivojlantirish bo'yicha Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan asosiy g'oyalardan biri – Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga qodir yangi avlodni tarbiyalash, ularga sifatli ta'lim berish va qo'llab-quvvatlash hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Davlatimiz rahbarining "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobida mazkur masala yuzasidan shunday deyilgan: "Biz yoshlar siymosida umrimiz mazmunini, hayotimizning asosiy samarasini ko'ramiz. Yangi O'zbekistonda azmu shijoatli yoshlar bilan birga bunyod etamiz!

Bizning taraqqiyot strategiyamizda har jihatdan barkamol rivojlangan, erkin fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy

hayotiy qarashlarga ega yigit-qizlarni tarbiyalash eng ustuvor vazifalarimizdan biridir"[2].

Mustaqillik davrida yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga katta e'tibor qaratildi, yoshlarga mamlakatning ertangi kunini yaratuvchi kuch sifatida qaraldi, yoshlar siyosati davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. So'nggi 5 yilda esa bu sohada qilingan islohotlar yangi sifat bosqichiga olib chiqildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yosh avlodning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning ta'lim-tarbiyasiga sarmoya kiritish masalalarini Birlashgan Millatlar tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-yig'ilishi kun tartibiga olib chiqib, xalqaro hamjamiyatni BMTning Yoshlar huquqlari bo'yicha konvensiyasini ishlab chiqish va ratifikatsiya qilishga chaqirdi. Ushbu taklif xalqaro hamjamiyat, xorijiy ekspertlar, jumladan, YUNISEF, BMTning Aholishunoslik fondi (YUNFPA) tomonidan e'tirof etildi.

Mamlakatda yoshlar siyosatini izchil amalga oshirish ishlari jadal tus oldi. 2016 yilda "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun, undan so'ng keyingi 5 yil mobaynida yoshlar siyosati samaradorligiga doir jami 60 ga yaqin Qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilinib, 30 iyun "Yoshlar kuni" deb e'lon qilindi. Yoshlarga oid davlat siyosatini muvofiqlashtiruvchi yagona davlat organi sifatida - O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyati yo'lga qo'yildi[3]. Yoshlar ishlari agentligi qoshida Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti faoliyati qaytadan yo'lga qo'yildi. O'zbekiston yoshlar ittifoqi, uning huzuridagi "Kamalak" bolalar tashkiloti faoliyatlari yangi bosqichga ko'tarildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda ilmiy tahlilning tizimli, tarkibiy-funksional, statistik, qiyosiy va sotsiologik usullaridan foydalanilgan holda tahlillar asosida ochib berishga harakat qilindi.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatida Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi, Qonunchilik palatasida Yoshlar masalalari bo'yicha komissiya tashkil etildi. Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi qoshida "Yoshlar parlamentlari" tashkil etildi. Shu bilan birga, O'zbekiston talabalari va yoshlari forumida yoshlarni qonun ijodkorligi jarayoniga jalb etilishini ta'minlash maqsadida har bir deputatga bir nafardan yoshni birlashtirish hamda joylarda "Yoshlar parlamenti vakillarining maktabi" faoliyatini yo'lga qo'yish yuzasidan davlat rahbari tegishli ko'rsatmalarni berdilar. Natijada bir hududda yoshlar parlamentiga kadrlarni tayyorlaydigan tizim shakllanadi, har bir hududning muammosini parlamentda ko'rib chiqilishini ta'minlaydigan tizim shakllanadi.

Ijtimoiy faol yosh yetuk mutaxassislarni tayyorlashda Yoshlar parlamenti muhim rol o'ynaydi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatib turibdiki, yoshlarning siyosiy bilimlari, huquqiy savodxonligi va fuqarolik faolligini oshirishda turli siyosiy tuzilmalar modelini yaratish, ularda yoshlarning ishtirokini ta'minlashga qaratilgan tuzilmalar faoliyati yaxshi samara berib kelmoqda. O'zbekistonda ilk bor Yoshlar parlamenti 2020 yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati huzurida alohida tashkil etildi. Xususan, Senat huzuridagi Yoshlar parlamentida 100 nafar yosh deputatlar a'zo bo'lib, Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti 150 nafar yoshlarni qo'mita atrofida birlashtirdi.

Ikki yoshlar parlamentining maqsadi – yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquqiy ongi va savodxonligini oshirish, jamiyatda yoshlarni siyosiy faol qatlamga aylantirish hamda ularning siyosiy-huquqiy bilim va ko'nikmalarini amalda boyitish, qonunchilik va qonun ijodkorligi jarayoniga yoshlarni jalb qilish va qabul qilinayotgan qonunlarni yoshlar orasida keng targ'ib qilish orqali ularning parlament hayotiga daxldorligini oshirish hisoblanadi.

Prezidentning 2021 yil 30 iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan so'zlagan ma'ruzasida siyosiy yetuk va faol yosh yigit-qizlarni milliy parlament va mahalliy kengashlar faoliyatiga yanada kengroq jalb etish maqsadida Xalq deputatlari kengashlari tavsiyasi asosida yosh, g'ayratli, fidoyi yoshlarni Oliy Majlis deputati va senatorlariga birlashtirilishi, shu bilan birga, mahalliy kengashlarda ham, xuddi Senat va Qonunchilik palatasidagi kabi, yoshlar parlamenti vakillari maktabi tashkil etilishi, shuningdek, iqtidorli yoshlar orasidan yangi avlod zaxira kadrlari – "Kelajak liderlari"ni shakllantirilishi haqida alohida to'xtalib o'tdilar. Natijada yoshlar nafaqat markazda turib, balki olis tuman va qishloqlardagi muammolarni Parlamentning diqqat markaziga olib chiqishlari mumkin bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, har bir tuman va shaharda o'z hududining muammo va kamchiliklarini yaxshi biladigan va hal qila oladigan yosh kadrlarni tayyorlash imkonini yaratadi.

Yoshlarni qaror qabul qilish jarayoniga keng jalb qilish maqsadida parlamentning ikki palatasi huzuridagi Yoshlar parlamentlarining modelini maslahat organidan qaror qabul qilish jarayoniga ma'lum miqdorda ta'sir o'tkazadigan organga transformatsiya qilish, umumiy xulosasini parlament o'qishlarida inobatga olinishini ta'minlash taklif etiladi. Natijada yoshlarning qonun ijodkorligi jarayoniga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatishi, o'zlarining ovozi muhim ekanligini his qilishi va davlat rivojiga hissa qo'shishdagi ma'suliyati ortishiga erishiladi.

Yosh avlod tarbiyasida hal qiluvchi o'rin tutadigan ta'lim tizimida ulkan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. So'nggi to'rt yilda mamlakatda oliy ta'lim muassasalari soni 50 foizga (43 ta yangi) oshirilib, ularning soni 121 taga, yoshlarni oliy ta'lim muassasalariga qamrov 9 foizdan 25 foizga yetkazildi. 4 ta Prezident maktablari, 5 ta "Temurbeklar maktabi" va 9 ta ijod maktablari barpo etilib, "Zamonaviy maktab" dasturi joriy etilmoqda[6]. Mazkur raqamlar yildan-yilga o'sib bormoqda. Bundan tashqari, xorijda yashayotgan va professional faoliyatini yuritayotgan vatandoshlarimiz, ayniqsa, katta ilmiy salohiyatga ega olimlar, mutaxassislar va iste'dodli yoshlar bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish, shuningdek, O'zbekistonning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun zarur, jahon mehnat bozorida raqobatbardosh va yuqori malakali mutaxassislarni yetakchi xorijiy ta'lim muassasalarida hamda O'zbekistonda tayyorlash va malakasini oshirish orqali kadrlar bilan ta'minlash maqsadida "El-yurt umidi" jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi[5]. Jamg'arma Xorijda stipendiatlarning malaka oshirishi, stajirovkasi va o'qishini tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iste'dod" jamg'armasining huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari, shu jumladan xalqaro shartnomalari bo'yicha huquqiy vorisi bo'lib qoldi.

Yoshlarni maktab davridan ijtimoiy faol va ma'nan yetuk qilib tarbiyalashda esa O'zbekiston Yoshlar ittifoqi qoshidagi "Kamalak" bolalar tashkilotining o'rni va ahamiyati ham zalvorli bo'lib tashkilot ko'plab bolalarni o'z atrofida "Vatan, do'stlik va baxtli bolalik uchun" g'oyasi atrofida birlashtirib kelmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tashkilotda Sardorlar Kengashi tizimi tashkil etilgan bo'lib, unda tarbiya topgan bolalar oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirganda o'zlari tahsil oladigan guruh, fakultet va oliy o'quv yurti yetakchilari sifatida ijtimoiy faol tarzda faoliyatini davom ettiradilar. Mehnat faoliyati davomida ham vazirlik, idora va tashkilotlar tarkibida mavjud Yoshlar yetakchilari Kengashida o'zlarini namoyon qilib, liderlik ko'nikmalarini rivojlantirib borgan yoshlar bora-bora haqiqiy ijtimoiy faol yoshlar sifatida turli darajadagi rahbarkadrlar zaxirasiga kiritib, turli lavozimlarga tayinlanish tizimi ijobiy samara berib kelmoqda.

Yoshlarning volontyorlik faoliyatiga ham alohida to'xtaladigan bo'lsak, u yoshlarning shaxsiy (mas'uliyat, ishonch, tajriba), ijtimoiy (tashabbuskorlik, liderlik), fuqarolik ko'nikmalari, mas'uliyati, daxldorligini oshirishga xizmat qiladi. Volontyorlik mamlakatimizda ko'p yillardan buyon turli shakl va ko'rinishlarda mavjud bo'lgan bo'lsada, so'nggi besh yillikda bu harakat davlat tomonidan rasman tan olindi, hayotimizda o'z o'rniga, qonuniy asosiga ega bo'ldi va sezilarli darajada rivojlandi.

2019 yilning 2 dekabr kuni O'zbekistonda ilk bor "Volontyorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Ushbu Qonun volontyorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish sohasiga muhim asos bo'ldi. 2020 yil dekabrda esa bir guruh volontyorlar birlashib, volontyorlik faoliyatini tashkil etishga qaratilgan fuqarolik tashabbuslarini rivojlantirish, insonparvarlik, bag'rikenglik hamda hamjihatlilikni qo'llab-quvvatlash hamda volontyorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida O'zbekiston volontyorlari assotsiatsiyasini tashkil etildi. Pandemiya tufayli yuzaga kelgan murakkab vaziyat volontyorlar harakatini sinovdan o'tkazdi. Volontyorlardan tuzilgan guruhlar pandemiya sabab tashkil etilgan markazlarda, "Xavfsiz yordam" aksiyasi, "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati, "Sardoba sari saxovat karvoni" kabi xayriya aksiyalarida faol ishtirok etib, xalqimiz dardiga malham bo'lishdi.

O'zbekiston Respublikasida Koronavirus pandemiyasi davrida COVID-19 virusining yanada keng tarqalishining oldini olish va unga qarshi kurashish maqsadida olib borilgan ishlarda mas'ul idora va tashkilotlar xodimlari bilan bir qatorda Yoshlar ishlari agentligi muvofiqlashtiruvchi ostida faoliyat yuritayotgan volontyor yoshlarning alohida o'rniga bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan volontyorlarning ezgu harakatlari yuqori baholanib, 400 nafarga yaqini "Mehr-sahovat" ko'krak nishoni bilan taqdirlangani ko'ngilli yoshlar uchun juda katta rag'bat bo'ldi.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2020 yil 25 dekabrda o'tkazilgan yoshlar forumida hamda 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2021 yil "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da belgilab berilgan ustuvor vazifalarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi va Yoshlar ishlari agentligi hamkorligida intellektual jihatdan salohiyatli va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega, teran fikrlaydigan, mustaqil

dunyoqarashga ega yosh liderlar qatlamini shakllantirish tashabbusi – 20-35 yoshli oliy ta'lim muassasalari talabalari hamda davlat organlari va tashkilotlarida faoliyat yuritib kelayotgan yosh davlat fuqarolik xizmatchilari uchun "Kelajak liderlari" klubi tashkil etildi.

Mazkur klub maqsadi davlat xizmati uchun yangi avlod kadrlarini shakllantirish, yoshlarni, ayniqsa, yosh xotin-qizlarni davlat xizmatiga keng jalb etish, davlat xizmatining jozibadorligini oshirish hamda yosh istiqbolli kadrlardan rahbarlik lavozimlariga zaxira shakllantirishdan iborat.

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda yoshlarga juda katta e'tibor berilmoqda, shu imkoniyatlardan albatta unumli foydalangan xolda kelajakda vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta'minlashda o'zimizni munosib hissamizni qo'sha olishimiz kerak. Bugungi kunda mavjud muammolarni hal qilish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalar asosida ishlarni amalga oshirishni masadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

Birinchidan, dunyoqarashi keng, kreativ fikrlaydigan, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qila oladigan yoshlarni mas'uliyatli vazifalarga tayinlash maqsadida Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti huzurida "Kelajak liderlari akademiyasi"ni tashkil qilish zarur;

Ikkinchidan, oliy ta'lim muassasalarida a'lo baholarga o'qiydigan va ijtimoiy faol yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida yanada ko'proq stipendiya turlarini joriy etish;

Uchinchidan, o'quvchilari o'rtasida "Uchinchi renesans bunyodkorlari" shiori ostida turli tanlovlar o'tkazish va bu jarayonga uyushmagan yoshlarni ham jalb qilib ularni intellektual salohiyatini oshirish hamda g'oliblarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish;

To'rtinchidan, turli sohalarida alohida faollik ko'rsatib yuksak natijalarga erishib kelayotgan yoshlarni rasmi va erishgan yutuqlarini o'zida jamlagan maxsus "O'zbekiston yoshlari" nomli kitob nashr qilish va barcha ta'lim muassasa va tashkilotlarga yetkazish, bu o'z navbatida boshqa faol bo'lmayotgan va yosh bolalarni ularga xavasini oshirish, ularga o'xshab faol bo'lishlariga undash, intilishlarini oshirishga erishish;

Beshinchidan, uyushmagan yoshlar hayotidagi muammolar va ijtimoiy faol yoshlar hayotidagi o'zgarishlarni o'zaro taqqoslab, bir-biriga solishtirib, farqini ochib berishga qaratilgan turli mavzularda ijtimoiy roliklarni tayyorlash va yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish va boshqalar.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. –T.: O'zbekiston, NMIU. 2020 y. – 452 b.
2. Mirziyoev SH.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –T.: -O'zbekiston, 2021 y. 464-b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 iyundagi "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6017-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" PQ-4768-son Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PF-5545-sonli Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 18 yanvardagi "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 23-son qarori.
7. www.lex.uz